

**O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIY QO‘LLAB-QUVVATLASH TIZIMI:  
YANGILANISHLAR VA ISLOHOTLAR**

**Turayev Jamol Hasan o‘g‘li**

*O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi  
Biznes va Tadbirkorlik oliy maktabi Jizzax viloyat hududiy filiali rahbari*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbekistonda aholining ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimida so‘nggi yillardagi yangilanishlar, statistik ko‘rsatkichlar va amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilinadi. Mamlakatda aholining turli qatlamlariga manzilli yordam ko‘rsatish, ijtimoiyadolatni ta’minlash hamda kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan strategik choralar keng yoritiladi. Ayniqsa, ijtimoiy himoya tizimini raqamlashtirish, aholiga davlat xizmatlarini tezkor yetkazish, bolalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar va keksalarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha samarali dasturlar muhokama qilinadi. Maqolada soha bo‘yicha statistik ma’lumotlar keltirilib, davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari va natijalari ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining takomillashuvi jamiyat barqarorligi va aholi farovonligini oshirishda muhim omil sifatida baholanadi.

**Kalit so‘zlar:** O‘zbekiston, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, islohotlar, statistika, kambag‘allikni qisqartirish, raqamlashtirish, ijtimoiyadolat, davlat siyosati, aholi farovonligi.

**Abstract:** This article analyzes recent updates, statistical indicators, and ongoing reforms in the social support system of Uzbekistan. Special attention is given to targeted assistance for different segments of the population, ensuring social justice, and implementing strategic measures to reduce poverty. The paper also highlights the digitalization of the social protection system, the provision of state services in an efficient manner, as well as effective programs aimed at supporting children, persons with disabilities, and the elderly. Statistical data on the sector are presented, reflecting the priority directions and outcomes of state policy. Moreover, the improvement of social support mechanisms is assessed as a key factor in strengthening social stability and enhancing the well-being of the population.

**Keywords:** Uzbekistan, social support, reforms, statistics, poverty reduction, digitalization, social justice, state policy, public well-being.

So‘nggi yillarda aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, davlat tomonidan fuqarolarga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish ko‘lami va turlarini kengaytirish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan kompleks yondashuv asosida professional ijtimoiy himoya tizimini joriy qilish, ijtimoiy himoya tizimi samaradorligi va manzilliligin oshirish orqali aholining ko‘makka muhtoj qatlami ijtimoiylashuvini ta’minlash, ijtimoiy himoyani mahalla darajasigacha tashkil etish, og‘ir hayotiy ahvolga tushib qolgan aholiga individual yondashuvga muvofiq ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yish, aholining ijtimoiy sug‘urta mexanizmlari bilan qamrab olinishini kengaytirish, xavf guruhlariga tushib qolgan oilalarni aniqlash va kompleks ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish orqali ularning og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolishining oldini olish, nogironligi bo‘lgan shaxslarning hayot kechirishi uchun qulay muhit yaratish kabi bir qator maqsadlarni amalga oshirish, bundan tashqari, davlatning nogironligi bo‘lgan shaxslarning ishga joylashishi va ta’lim olishiga ko‘maklashishi bo‘yicha konstitutsiyaviy majburiyatlari bajarilishini ta’minlash maqsadida mazkur yo‘nalishda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni samarali muvofiqlashtirish tizimi joriy etilishi talab etilmoqda.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada e’lon qilingan “ijtimoiy davlat” tamoyillarini inobatga olgan holda, fuqarolarning ijtimoiy himoyaga oid huquqlarini va manfaatlarini so‘zsiz ta’minlash, aholiga ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatish sifatini tubdan oshirish hamda mazkur sohaga ilg‘or xalqaro standartlarga asoslangan mutlaqo yangi boshqaruv tizimini joriy etish maqsadida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi “Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-82-son Farmoni bilan tashkil etilgan.

Agentlik aholini ijtimoiy himoya qilish va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish sohasidagi yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish bo‘yicha vakolatli davlat organi hisoblanadi hamda o‘z faoliyatini boshqa davlat organlari va tashkilotlari, ularning mansabdor shaxslaridan mustaqil ravishda amalga oshiradi O‘zbekistonda ijtimoiy himoya davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi bo‘lib, 2022–2030-yillarga mo‘ljallangan Milliy rivojlanish strategiyasi ichida keng ko‘lamli ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash maqsadi asosiy o‘rin tutadi.

Strategiyaning ijtimoiy himoya bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlari: Yuqori samarali va inklyuziv ijtimoiy himoya tizimini shakllantirish, kam ta’minlangan, imkoniyati cheklangan, yolg‘iz yoki nogironligi bo‘lgan shaxslarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash.

Ijtimoiy xizmatlarning sifati va qamrovini oshirish

Hududiy tengsizlikni kamaytirish, xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish.

Mehnatga layoqatli aholining bandligini ta'minlash

Ish o'rnlari yaratish, kasb-hunar o'rgatish va qayta tayyorlash orqali ijtimoiy himoyani mehnat orqali amalga oshirish.

Ayollar va yoshlar manfaatlarini himoya qilish

Ayollarni iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash dasturlari, yoshlar uchun imkoniyatlar yaratish.

Raqamlashtirish orqali ijtimoiy himoya tizimini modernizatsiya qilish

"Yagona ijtimoiy reyestr" kabi elektron platformalar orqali yordamlarning aniq va shaffof taqsimlanishi.

Statistik ko'rsatkichlar va natijalar: Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2020–2024-yillar davomida ijtimoiy nafaqlar va moddiy yordam oluvchilar soni oshdi. Kambag'allik darajasini qisqartirish maqsadida yangi ish o'rnlari yaratish, professional qayta tayyorlash dasturlari va "Yoshlar daftari", "Ayollar daftari" kabi mexanizmlar yo'lga qo'yildi. Natijada aholining daromad manbalari kengayib, turmush daraja si ko'tarildi.

Yuqorida ko'rsatilgan ijtimoiy xizmatlarning sifati va qamrovini oshirish, shuningdek, mehnatga layoqatli aholining bandligini ta'minlash borasida bir qator amaliy ishlar amalga oshirildi hamda huquqiy hujjatlar tasdiqlandi. Jumladan, yoshlar va xotin-qizlarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularni zamonaviy ko'nikmalarga yo'naltirish, professional ta'lim muassasalari va Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi faoliyatini kengaytirish orqali ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi bilan iqtisodiy islohotlar uyg'unlashtirilmoqda. Shu maqsadda Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 7-avgustdagи 340-sон qarori qabul qilinib, unda Oliy muktab va uning hududiy filiallariga keng ko'lamlı vazifalar yuklatildi. Xususan, mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish, bandlikni ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha hokim yordamchilari uchun malaka oshirish kurslari tashkil etish, aholiga moliyaviy savodxonlik va tadbirkorlik asoslari bo'yicha o'quv kurslari o'tkazish belgilandi. Amaliy natijalar ham sezilarli: Oliy muktabning Jizzax viloyat filiali tomonidan qisqa muddatli o'quv kurslariga 2180 nafar fuqarolar jalb qilinib, ulardan 823 nafari "Ayollar daftari"da ro'yxatga olingan xotin-qizlar tashkil etdi. Tinglovchilarning 353 nafari o'zini-o'zi band qilgan va 4 ta yuridik shaxs tashkil etgan. Bundan tashqari, 129 nafar fuqaro davlat subsidiyasiga ega bo'ldi. 2024-yilning dastlabki 8 oyida esa viloyatning 13 tuman va shaharlarida 71 ta qisqa muddatli kurs tashkil etilib, ularda 1 441 nafar fuqaro ishtiroy etdi. Shundan 646 nafarini xotin-qizlar tashkil etib, bitiruvchilarning 199 nafari o'zini-o'zi band qilgan va 2 ta yuridik tashkilot tuzilgan, 65 nafariga esa subsidiya ajratilgan.

Xulosa: O'zbekistonda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi bosqichma-bosqich modernizatsiya qilinib, aholining turli qatlamlariga manzilli yordam ko'rsatishning samarali

mekanizmlari ishlab chiqilmoqda. Islohotlar nafaqat ijtimoiy himoyani kuchaytirish, balki tadbirkorlikni rivojlantirish va mehnat bandligini ta'minlashga ham xizmat qilmoqda. Bu jarayon ijtimoiy adolatni ta'minlash, fuqarolarning farovonligini oshirish va jamiyat barqarorligini mustahkamlashda muhim omil bo'lib, mamlakatni barqaror taraqqiyot sari yetaklamoqda.

## REFERENCES

1. Suyunov D. X. Korporativ boshqaruv mexanizmi: muammo va yechimlar. Monografiya //T.: Akademiya. – 2007. – T. 200.
2. Suyunov, D., and Elmurod Abdusattorovich Xoshimov. "Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv samaradorligini baholashning metodologik jihatlari." *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*" ilmiy elektron jurnali 2 (2018).
3. Suyunov D. H. The main problems of corporate governance and ways to solve them //EPRA International Journal of Economic Growth and Environmental Issues (EGEI) ISSN. – C. 2321-6247.
4. Suyunov D. H. The main problems of corporate governance and ways to solve them //EPRA International Journal of Economic Growth and Environmental Issues (EGEI) ISSN. – C. 2321-6247.
5. Davletyarov M. A., Suyunov D., Kenjabaev A. T. DIgitalization of the economy: concepts, problems and implementation strategy //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2023. – T. 12. – C. 209-218.
6. Davletyarov M. A., Suyunov D., Kenjabaev A. T. state regulation of digital transformation of the economy // American Journal of Business Administration, Economics and banking. – 2023. - T. 9. - S. 145-150.
7. Suyunov D. X. Improving the introduction of a corporate management mechanism into the development of the business environment. i. f. D. diss / / I. f. D. it is written to obtain a scientific degree in diss. – 2008. - T. 261.
8. Olimovich A. K., Butabaev M., X. S. D. project management in the strategic management system of the company / / Galaxy International interdisciplinary research journal. – 2023. - T. 11. – №. 7. - S. 40-44.
9. Suyunov D., Khoshimov E. In modern conditions, the main directions of development of the corporate management system in Uzbekistan //economy I innovasione technologii. – 2019. – №. 4. - S. 197-210.
10. .Davletyarov M. A., Suyunov D., Kenjabaev A. T. state regulation of digital transformation of the economy // American Journal of Business Administration, Economics and banking. – 2023. - T. 9. - S. 145-150.